QOZOQ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI QON-QARINDOSHLIK ATAMALARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI.

Sadullayeva Ziyoda Zafarjanovna
Qozoq tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Tursinova Marhaba Ahmetqali qizi
E.A. Buketov nomidagi Qarag‘andi Milliy tadqiqot universiteti
Qarag‘andi shahri, Qozog‘iston Respublikasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy tillar oilasiga mansub qozoq va o‘zbek tillaridagi asosiy qarindoshlik terminlarining etimologiyasi, fonetik-morfologik tuzilishi va semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida "ota", "ona", "aka", "uka" kabi fundamental tushunchalarning tarixiy ildizlari va zamonaviy tillardagi qo‘llanish o‘ziga xosliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: o‘zbek tili, qozoq tili, bobo,buvi, ota-ona, aka-uka, opa-singil, etimologiya, qiyosiy-tarixiy tahlil.

Turkiy tillarning leksik tizimini tarixiy-qiyosiy jihatdan tadqiq etish — turkshunoslik ilmining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Turkiy xalqlarning lisoniy, madaniy va tarixiy aloqalarini aniqlashda leksika, xususan, qarindoshlik nomlari alohida o‘rin tutadi. Qarindoshlik nomlari xalqning ijtimoiy tuzilishini, dunyoqarashini, oilaviy munosabatlarini va etnomadaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi fundamental lisoniy birliklar qatoriga kiradi. Shu bois, o‘zbek va qozoq tillaridagi qarindoshlik nomlarini qiyosiy o‘rganish ikki xalqning tarixiy-madaniy sabaqdoshligini, mushtarak turkiy asosini va milliy o‘ziga xosliklarini ayon qilishga imkon beradi.

Turkiy tillar leksikasini qiyosiy tadqiq etish an’anasi buyuk olim Mahmud Koshg‘ariy asarlaridan boshlanadi. Uning "Devonu lug‘otit turk" asarida turkiy qabilalar tillaridagi so‘zlar qiyoslanib, ularning ma’noviy va qo‘llanish xususiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan [1]. Bu nodir asar turkiy tillarning tarixiy leksikasini o‘rganishga tamal toshini qo‘ydi. Keyinchalik turkiy tillarning qiyosiy leksikasiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlar maydonga keldi. Xususan, N.A. Baskakov, E.V. Sevortyan, A.M. Shcherbak, E.R. Tenishev kabi yirik olimlarning tadqiqotlarida turkiy tillardagi qarindoshlik nomlarining tarixiy taraqqiyoti, etimologiyasi va semantik xususiyatlari har tomonlama ko‘rib chiqilgan [2].

Tarixiy-qiyosiy tadqiqotlar natijasida ko‘hna turkiy yozma yodgorliklar tilining leksik fondi chuqur tahlil qilindi. O‘rxun-Enasoy yodgorliklari tilidagi ko‘plab so‘zlarning hozirgi o‘zbek, qozoq va boshqa turkiy tillardagi variantlari bilan genetik yaqinligi aniqlandi. Taniqli tadqiqotchilar A. Qurishjanov va M. Tomanov O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari tilidagi so‘zlarning hozirgi tillar bilan shakliy va ma’noviy jihatdan mushtarakligini ta’kidlab o‘tganlar. Bu esa turkiy tillarning yagona tarixiy negizdan tarqalganini ilmiy jihatdan isbotlaydi [3,4,5].

Hozirgi kunda o‘zbek va qozoq tillaridagi qarindoshlik nomlarini qiyosiy o‘rganish tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, qarindoshlik nomlari orqali xalqlarning etnik yaqinligini, tarixiy muloqotini va madaniy mushtarakligini kuzatish mumkin. Ikki tildagi *ota, ona, aka, uka, opa, singil,* kabi terminlarning o‘xshashligi umumturkiy asosni ko‘rsatsa, ayrim farqli jihatlar har bir xalqning o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti bilan bog‘liqdir.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada o‘zbek va qozoq tillaridagi qarindoshlik nomlari tarixiy-qiyosiy yo‘nalishda tahlil etilib, ularning semantik xususiyatlari, etimologiyasi va

qo‘llanish tabiati yoritiladi. Shuningdek, ko‘hna turkiy manbalardagi terminlarning zamonaviy tillardagi ko‘rinishi qiyoslanib, lisoniy mushtaraklik va farqli belgilar ilmiy asoslanadi.

Turkiy tillardagi qarindoshlik atamalari xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, ijtimoiy tuzilishi va milliy madaniyatini saqlab qolgan eng qadimiy leksik qatlamlardan biri hisoblanadi. Qozoq va o‘zbek tillaridagi qondosh qarindoshlik atamalarining asosiy qismi umumturkiy ildizga ega bo‘lib, bu ikki xalqning tarixiy yaqinligi va madaniy aloqalarini ko‘rsatadi. Turkolog olimlar V.V. Radlov, N.A. Baskakov, A.N. Kononov hamda Mahmud Qoshg‘ariy asarlarida qarindoshlik terminlarining tarixiy-etimologik tabiati, semantik taraqqiyoti va qadimgi turkiy yodgorliklardagi qo‘llanilishi haqida muhim ma’lumotlar berilgan.

Qozoq tilidagi *ata* (ата) va o‘zbek tilidagi *ota* (ота) so‘zlari qadimgi turkiy tilidagi *ata* shaklidan kelib chiqqan. Qadimgi turkiy davrda bu so‘z “katta erkak”, “ota”, “ajdod”, “urug‘ boshlig‘i” ma’nolarida qo‘llangan. V.V. Radlov o‘zining turkiy tillar lug‘atida *ata* so‘zining deyarli barcha turkiy tillarda saqlanganini qayd etadi. Qozoq tilida qadimgi shakl o‘z holicha saqlangan bo‘lsa, o‘zbek tilida birinchi bo‘g‘indagi *a* unlisi lablanib, *ata* → *ota* shakliga o‘zgargan. Semantik jihatdan qozoq tilidagi *ata* so‘zi “bobo”, “ajdod”, “katta ota” ma’nolarini ham bildiradi. O‘zbek tilidagi *ota* esa asosan “farzandning otasi” ma’nosida qo‘llanadi.

Qozoq tilidagi *әje* (әже) so‘zi qadimgi turkiy tilidagi *eče, eje* shakllari bilan bog‘liq. Bu so‘z qadimgi davrlarda “ona”, “katta ayol”, “opa” ma’nolarida ishlatilgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham ushbu ildiz uchraydi. Qozoq tilida *eje* → *әje* shaklida rivojlangan. O‘zbek tilida esa bu shakl faol saqlanmagan va uning o‘rnini *buvi*, *momo* so‘zlari egallagan. Qozoq tilidagi *әje* so‘zi mehribonlik, donolik va avlod davomiyligi bilan bog‘liq etnomadaniy ma’noga ega.

Qozoq tilidagi *әke* (әке) so‘zi qadimgi turkiy tilidagi *eke* shaklidan kelib chiqqan. N.A. Baskakovning fikricha, bu so‘z dastlab “katta erkak”, “boshliq”, “hurmatli inson” ma’nolarini bildirgan. Keyinchalik esa qarindoshlik ma’nosida qo‘llanib, “ota” tushunchasini ifodalay boshlagan. Qozoq tilida *eke* → *әke* shaklida fonetik o‘zgarish yuz bergan. O‘zbek tilida esa bu shakl saqlanmagan va uning o‘rnida *ota* so‘zi faol qo‘llanadi. Morfologik jihatdan bu so‘z sodda tub ot hisoblanadi va undan *әkelik, әkesiz, otalik, otasiz* kabi hosila shakllar yasaladi.

Qozoq tilidagi *ana* va o‘zbek tilidagi *ona* so‘zlari qadimgi turkiy tilidagi *ana* shaklidan kelib chiqqan. Bu atama deyarli barcha turkiy tillarda uchraydi. O‘zbek tilida birinchi bo‘g‘indagi *a* unlisi lablanib, *ana* → *ona* shakliga o‘zgargan. Qozoq tilida esa qadimgi shakl saqlanib qolgan. Semantik jihatdan bu so‘z “farzandni dunyoga keltiruvchi”, “tarbiyachi”, “oila tayanchi” ma’nolarini anglatadi.

Qozoq tilidagi *şeşe* (шешe) so‘zi ham onani bildiruvchi qadimgi atamalardan biridir. Bu so‘z qadimgi turkiy tilidagi *eče* shakli bilan bog‘liq deb qaraladi. Qadimgi davrlarda ushbu birlik “ona”, “katta ayol”, “tarbiyachi” ma’nolarida ishlatilgan. Qozoq tilida *şeşe* so‘zi emotsional-ekspressiv ma’noga ega bo‘lib, og‘zaki nutqda keng qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa bu so‘zning aniq muqobili mavjud emas.

Qozoq tilidagi *ağa* (аға) va o‘zbek tilidagi *aka* so‘zlari qadimgi turkiy tilidagi *aqa* shaklidan kelib chiqqan. Mahmud Qoshg‘ariy lug‘atida bu so‘z “katta aka”, “hurmatli erkak” ma’nolarida berilgan. Qozoq tilida qadimgi *q* undoshi yumshab, *aqa* → *ağa* shakliga o‘zgargan. O‘zbek tilida esa *aka* shakli saqlangan. Qozoq tilida *ağa* so‘zi nafaqat qarindoshlik ma’nosida, balki hurmat ifodalovchi murojaat shakli sifatida ham qo‘llanadi.

Qozoq tilidagi *ini* (ін) so‘zi qadimgi turkiy tilidagi *ini* shaklidan kelib chiqqan. Bu atama Orxon-Yenisey bitiklarida ham uchraydi. Qozoq tilida qadimgi shakl saqlangan bo‘lsa, o‘zbek tilida ushbu ma’noni ifodalash uchun *uka* so‘zi qo‘llanadi. Bu holat o‘zbek tilida qadimgi leksemaning boshqa birlik bilan almashganini ko‘rsatadi. Semantik jihatdan har ikki tilda ham “o‘zidan kichik erkak qarindosh” ma’nosi ifodalanadi.

Qozoq tilidagi *әnke* (әпке) va o‘zbek tilidagi *opa* so‘zlari qadimgi turkiy tilidagi *apa* shakli bilan bog‘liq. Qadimgi davrda bu so‘z “katta qiz”, “ayol”, “ona” ma’nolarini bildirgan. Qozoq tilida *apa* → *әnke* shaklida fonetik o‘zgarish yuz bergan, o‘zbek tilida esa *apa* → *opa* shakli saqlangan. Semantik jihatdan har ikki tilda ham katta qiz qarindosh ma’nosini anglatadi.

Qozoq tilidagi *qarındas* (қарындас) so‘zi milliy xususiyati kuchli bo‘lgan qarindoshlik atamalaridan biridir. Ushbu so‘z *qarın* va *-das* komponentlaridan tashkil topgan. *Qarın* “bir qorin”, “bir onadan tug‘ilish” ma’nosini bildirsa, *-das* qo‘shimchasi umumiylik va birlik ma’nosini ifodalaydi. Shu sababli *qarındas* so‘zi “bir qorin farzandi” degan ma’noni anglatadi. Qozoq tilida bu atama erkak kishining o‘zidan kichik qiz qarindoshiga nisbatan qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa bunday aniq semantik farqlanish mavjud emas va uning o‘rnida *singil* so‘zi ishlatiladi.

Qozoq tilidagi *siñli* va o‘zbek tilidagi *singil* so‘zlari qadimgi turkiy tilidagi *siŋil* shaklidan kelib chiqqan. Ushbu birlik Orxon bitiklarida ham uchraydi. Qozoq tilida qadimgi *ŋ* tovushi saqlangan bo‘lsa, o‘zbek tilida *ng* shakli yuzaga kelgan. Qozoq tilida *siñli* ayol kishining o‘zidan kichik qiz qarindoshini bildiradi. O‘zbek tilida esa *singil* umumiy ma’noda qo‘llanadi.

Umuman olganda, qozoq va o‘zbek tillaridagi qondosh qarindoshlik atamalarining asosiy qismi umumturkiy ildizga ega. Fonetik jihatdan qozoq tili qadimgi turkiy shakllarni ko‘proq saqlab qolgan bo‘lsa, o‘zbek tilida unlilarning lablanishi va ayrim leksemalarning almashishi kuzatiladi. Semantik jihatdan esa qozoq tilidagi qarindoshlik tizimi yanada murakkab va differensiallashgan hisoblanadi. Ayniqsa, *qarındas* va *siñli* atamalarining alohida ma’nolarda qo‘llanishi qozoq xalqidagi qarindoshlik tizimining chuqur rivojlanganini ko‘rsatadi. Bu holat qozoq xalqining urug‘-aymoq tizimi va yetti ota an’anasi bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbek va qozoq tillaridagi qon-qarindoshlik nomlarini qiyosiy-tarixiy va lingvistik jihatdan tadqiq etish natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

Birinchidan, har ikki tildagi asosiy qarindoshlik terminlari (ota, ona, opa, singil, aka, uka) chuqur tarixiy ildizga ega bo‘lib, ularning aksariyati Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘atit turk" asari va O‘rxun-Enasoy bitiktoshlaridagi shakllar bilan uzviy bog‘liqdir. Tadqiqot davomida o‘rganilgan "ata", "ana", "aka-uka", "opa-singil" kabi so‘zlarning barcha turkiy tillar uchun mushtarak ekanligi va ularning ma’no barqarorligi ikki xalqning tili yagona qadimiy turkiy negizdan shakllanganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, lisoniy tahlillar o‘zbek va qozoq tillari o‘rtasidagi farqlar asosan fonetik qonuniyatlar natijasida yuzaga kelganini ko‘rsatdi. Xususan, qadimiy turkiy tildagi qattiq-yumshoq tovushlarning almashinishi (masalan, *ata-ota, ana-ona*) har bir tilning ichki fonetik rivojlanish xususiyatlarini aks ettiradi. Shuningdek, so‘z boshidagi unlilarning o‘zgarishi (masalan, ko‘hna turkiy *og‘-ug‘* birikmasining qozoq tilida *u/u* tovushiga mos kelishi: *og‘lan* > *ulan*) tillararo dialektal farqlanishning mahsulidir.

Uchinchidan, qarindoshlik nomlarining semantik (ma’noviy) tabiati har ikki xalqning o‘ziga xos ijtimoiy tuzilishi va madaniy taraqqiyoti ta’sirida turlicha rivojlangan. Buning eng yorqin misoli "qarindosh" (qarındas) so‘zidir: qadimgi turkiy tilda "bir qorindan tug‘ilgan" degan umumiy ma’noni anglatgan bu so‘z o‘zbek tilida barcha urug‘-aymoqlar uchun umumiy nom bo‘lib

qolgan bo‘lsa, qozoq tilida faqat erkak kishining o‘zidan kichik qiz jinsidagi jigariga nisbatan qo‘llaniladigan tor semantik ma’noga ega bo‘lgan. "Ota" (ata) so‘zida ham shunday ijtimoiy farqlanish kuzatiladi: o‘zbek tilida u ko‘proq bevosita validiyni anglatsa, qozoq tilida u katta yoshdagi ajdodlarni, qaynotani va boboni anglatuvchi keng ma’noviy maydonni qamrab oladi.

To‘rtinchidan, turkiy tillarning leksik qatlamini qiyosiy-tarixiy usul bilan o‘rganish so‘zlarning o‘zagi va ularning ma’noviy evolyutsiyasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "ene" so‘zining o‘zbek va qozoq tillaridagi qo‘llanishi uning biologik "ona" ma’nosidan ijtimoiy "nikoh orqali bog‘langan qarindosh" ma’nosiga o‘tish jarayonini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, qarindoshlik nomlari — o‘zbek va qozoq tillarining genetik bir xilligini va madaniy mushtarakligini saqlab kelayotgan eng barqaror lisoniy dalildir. Maqolada keltirilgan lingvistik dalillar ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy rishtalarning naqadar mustahkam ekanligini va turkiy tillar terminologik tizimining boy imkoniyatlarini namoyish etadi. Kelajakda bu kabi tadqiqotlarni boshqa qarindoshlik guruhlari (masalan, *aje, äpke, siñli*) bo‘yicha davom ettirish turkshunoslik fanining metodologik bazasini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qashqariy M. Turkiy so‘zlar lug‘ati. – Almati: Xant, 1998. – 590 b.
2. Turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi bo‘yicha tadqiqotlar. Uchinchi qism. Leksika. – M.: SSSR FA nashriyoti, 1955. – 298 s.
3. Qurishjanov A., Tomanov M. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining o‘rganilish tarixi va grammatik ocherklari. – Almati, 1964. – 297 b.
4. Sabir M. O‘rta turkiy leksika va qozoq tili leksikasining saboqdoshligi. – Almati, 1994. – 168 b.
5. Ko‘hna turkiy tildagi son ism qo‘shimchalarining hozirgi turkiy tillardagi ko‘rinishi // Al-Farobiy nomidagi QazMU xabarchisi. Filologiya seriyasi. – 2012. – №3(137). – B. 132-136.
6. To‘ychiboyev B. O‘zbek tili qarindoshlik terminlari. — Toshkent: Fan, 1992.
7. Dadaboyev X. O‘zbek tili leksikologiyasi. — Toshkent, 2017.
8. Tursinova M.A. Turkiy tillarning genetik aloqalari: sinxron va diaxron jihatlari: monografiya / M.A. Tursinova. – Qaraganda: QarMU nashriyoti, 2017. – 130 b.